



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No1
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 83 sahifa.
2026-yil yanvar*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSIYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUROJAATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	



MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Rushana Taxirova

TDIU, "Iqtisodiyot" fakulteti I-77 guruh talabasi

Ilmiy rahbar:

F.U.Umarov

TDIU, "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasida dosenti i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim va yetakchi omillardan biriga aylanib borayotgani ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Innovatsiyalar bozor munosabatlari rivojlanishini jadallashtiruvchi samarali vosita sifatida yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda innovatsiyalardan keng va oqilona foydalanish orqali tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, kapital, innovatsion jarayon, ishlab chiqarish omillari, innovatsion strategiya, innovatsion tadbirkorlik.

Abstract: This article provides a scientific analysis of innovations as one of the key driving forces of economic development. Innovations are examined as an effective factor accelerating market development. Furthermore, the study substantiates the opportunities for rapid growth of entrepreneurial activity through the extensive and rational use of innovations in the modern economic environment and offers practical recommendations.

Key words: Innovation, capital, innovation process, factors of production, innovation strategy, innovative entrepreneurship.

Аннотация: В данной статье научно проанализирована роль инноваций как одного из ключевых факторов развития экономики. Показано, что инновации выступают эффективным инструментом ускорения развития рыночных отношений. Кроме того, обоснованы возможности интенсивного развития предпринимательской деятельности на основе широкого и рационального использования инноваций в современных условиях, а также предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: Инновация, капитал, инновационный процесс, факторы производства, инновационная стратегия, инновационное предпринимательство.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida mintaqaviy iqtisodiyot mamlakatlarning barqaror va uzluksiz rivojlanishida muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "har bir viloyat yirik sanoat, qishloq xo'jaligi yoki xizmat ko'rsatish markaziga aylanishi kerak" [1]. Ushbu fikr mintaqaviy rivojlanishning mutlaqo yangi konseptual yondashuvini shakllantirdi va hududlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

XXI asrning uchinchi o'n yilligi mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda strategik paradigmaning tubdan yangilanishi bilan xarakterlanadi. Global pandemiya, geosiyosiy jarayonlarning murakkablashuvi, iqlim o'zgarishi hamda to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida an'anaviy mintaqaviy rivojlanish modellari qayta ko'rib chiqilmoqda. Natijada mintaqalar endilikda faqat milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo'lib qolmay, balki mustaqil innovatsion tizimlar, raqobatbardosh ustunliklar manbai va barqaror rivojlanishning faol subyektlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy sharoitda mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishi murakkab va ko'p o'lchovli jarayon bo'lib, u nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy barqarorlik, ekologik muvozanat hamda raqamli transformatsiyani ham qamrab oladi. Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik kuchayib borayotgan bir paytda mintaqalar o'z iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, global qiymat zanjirlariga samarali integratsiyalashish va mahalliy resurslardan oqilona foydalanish zarurati bilan yuzlashmoqda.

O'zbekiston sharoitida mintaqaviy rivojlanish yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda. Davlat rahbarining "har bir viloyat o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot modeliga ega bo'lishi lozim" degan strategik qarori



mintaqalarning differensial va muvozanatli rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi [14]. Ushbu yondashuv mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish bilan bir qatorda, har bir hududning o'ziga xos salohiyatini to'liq ishga solish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son Farmonida¹ mamlakatning 2030-yilga qadar Global Innovatsion Indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlati qatoriga kirishi strategik maqsad sifatida belgilangan [2]. Mazkur maqsadga erishish fan va innovatsiyalar sohasini zamonaviy iqtisodiy talablar asosida rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa ilmiy faoliyatni mustahkam normativ-huquqiy asoslar bilan ta'minlash, kadrlar salohiyatini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini kompleks tahlil qilish, ularning nazariy asoslarini chuqur o'rganish hamda O'zbekiston sharoitida amaliy qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayrim mualliflar an'anaviy iqtisodiyot bilan bir qatorda, boshqa asoslarda shakllanayotgan yangi iqtisodiyot mavjudligini ta'kidlaydilar. Bizning fikrimizcha, ushbu ikki modelni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishdan ko'ra, ularning ijobiy jihatlarini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki an'anaviy iqtisodiyot negizida yangi iqtisodiy munosabatlar bosqichma-bosqich shakllanib boradi va bu jarayon uzviy evolyutsion rivojlanishni ifodalaydi. Darhaqiqat, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar ishlab chiqarishning muhim omiliga aylanganini e'tirof etish lozim.

Ma'lumki, iqtisodiy nazariyada ishlab chiqarishning an'anaviy uch omili — yer, mehnat va kapital mavjud bo'lib, ularni ilk bor tizimli ravishda Jean-Baptiste Say tahlil qilgan. Keyinchalik mazkur omillar doirasi kengaytirilib, ularga tadbirkorlik qobiliyati, ayrim yondashuvlarda esa axborot omili ham kiritila boshlandi. Bu holat iqtisodiy rivojlanishda bilim va axborotning tobora ortib borayotgan rolini yaqqol namoyon etadi. Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, tadbirkorlik qobiliyatini innovatsiyalar bilan to'liq almashtirishdan ko'ra, innovatsiyalarni an'anaviy ishlab chiqarish omillari bilan uzviy bog'lash yanada asosli yondashuv hisoblanadi.

Hozirgi davrda ishlab chiqarish omillarini chuqurroq o'rganish jarayonida ularning ichki tarkibi batafsil tahlil qilinmoqda. Jumladan, yer va tabiiy resurslarga asoslangan omillar uzoq muddatli raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlash imkoniyatlari cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, tabiiy resurslarning aksariyati qayta tiklanmaydigan bo'lib, vaqt o'tishi bilan kamayib borishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, innovatsion omil amalda cheksiz salohiyatga ega bo'lib, yangi bilimlar, texnologiyalar va tashkiliy yechimlar orqali barqaror raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini yaratadi. Innovatsiyalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi va ularning kengayib borishi iqtisodiy tizimning uzoq muddatli rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Mazkur yondashuv mutlaqo yangi qarash emas. Jean-Baptiste Say ishlab chiqarish omillarini tahlil qilar ekan, tadbirkorning muhim muvofiqlashtiruvchi rolini alohida ta'kidlagan. U yer, kapital va mehnat omillarini uyg'unlashtiruvchi subyekt sifatida tadbirkorni ko'rsatib, mehnat tushunchasini keng ma'noda talqin qilgan, ya'ni nafaqat jismoniy mehnatni, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni tashkil etish uchun zarur bo'lgan ilmiy bilimlar va intellektual salohiyatni ham ushbu omil tarkibiga kiritgan.

Ushbu fikrni ingliz olimi John Atkinson Hobson yanada rivojlantirib, ijodiy qobiliyatlarni ham ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida e'tirof etgan. U iqtisodiy tizimning yangi mahsulotlar, yangi bozorlar va yangi texnologiyalar yuzaga keladigan qismini "progressiv ishlab chiqarish sohasi" deb atagan. Bugungi kunda mazkur tushuncha innovatsion iqtisodiyot atamasi bilan ifodalanadi.

Innovatsiyalar nazariyasini o'rganishda Nikolai Kondratiev va avstriyalik iqtisodchi Joseph Schumpeterning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega. Aynan Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida innovatsiya tushunchasiga ilmiy ta'rif bergan. U innovatsiyani mavjud ishlab chiqarish omillarining ilmiy va tashkiliy jihatdan yangi kombinatsiyasi sifatida talqin qilib, uning asosiy maqsadi tijorat muammolarini hal etishdan iborat ekanini ta'kidlagan. Shumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning ichki manbai sifatida baholab, ularni besh turdagi tipik o'zgarishlar orqali izohlagan, ya'ni yangi texnologiyalar va texnologik jarayonlarni joriy etish, yangi xususiyatlarga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi xom ashyo manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarishni tashkil etish va moddiy-texnik ta'minotdagi o'zgarishlar hamda yangi bozorlarning paydo bo'lishi.

Shumpeter innovatsiyalar jarayonida tadbirkorning rolini doimo yetakchi omil sifatida ko'rsatgan, chunki aynan tadbirkor yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etadi va ushbu faoliyat natijasida iqtisodiy foyda oladi. Shu bilan birga, barcha ixtirolar ham avtomatik ravishda innovatsiyaga aylanmaydi. Innovatsiya — bu bozor talabiga javob beradigan va iqtisodiy foyda keltiradigan ixtirodir. Ilm-fan natijasida yangi g'oya shakllanadi, keyingi bosqichda esa ushbu g'oya tijoratlashtiriladi va ixtiro innovatsiyaga aylanadi. Shu ma'noda, ilm-fan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.09.2018 yildagi PF-5544-son <https://lex.uz/ru/docs/-3913188>



bilimni yaratish jarayoni bo'lsa, innovatsiya ushbu bilimlarni qo'shilgan qiymat orqali iqtisodiy natijaga, ya'ni daromadga aylantiruvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya usullaridan tizimli ravishda foydalanilgan. Tadqiqot ma'lumotlari ishonchli va rasmiy manbalarga asoslangan bo'lib, taniqli iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o'rni haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi umumlashtirildi hamda mamlakatimizda innovatsion rivojlanish va tadbirkorlik sohasida erishilayotgan yutuqlar bo'yicha olingan natijalarga tayangan holda innovatsion tadbirkorlikning mazmuni, ahamiyati va rivojlanish istiqbollari chuqur o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatning innovatsion rivojlanishi uning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga hamda zamonaviy global iqtisodiy tizimdagi o'rniga tobora kuchli ta'sir ko'rsata boshladi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati jahon miqyosidagi yetakchi tendensiyalardan kelib chiqqan holda innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. So'nggi besh yil davomida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha olib borilgan monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, tadqiqot va innovatsiyalarni rag'batlantirishga, shuningdek, zamonaviy bilimga asoslangan iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tishga qaratilgan izchil sa'y-harakatlar ijobiy natijalar bermoqda.

Xususan, uzoq yillik tanaffusdan so'ng O'zbekiston 2025-yilgi Global Innovation Index reytingida 139 ta mamlakat orasida 79-o'rinni egalladi (1-rasm) [16]. Mazkur ko'rsatkich mamlakatda innovatsion salohiyatni oshirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.



1-rasm. Global Innovatsiyalar Indeksi: O'zbekiston – Markaziy Osiyoning yangi innovatsion yetakchisi.

O'zbekiston quyi va o'rta daromadli mamlakatlar guruhida Vyetnam, Marokash, Mo'g'uliston va yana 37 ta davlat orasida 7-o'rinni egalladi (2024-yilda – 10-o'rin). Shuningdek, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida 10 ta mamlakat ichida Hindiston va Erondan keyin 3-o'rinda qayd etildi (2024-yilda – 4-o'rin) [16]. Mazkur natijalar mamlakatning innovatsion rivojlanish borasida izchil taraqqiyot yo'lidan borayotganini ko'rsatadi.

Global innovatsiya indeksi reytingi hisoboti Jahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan Portulans instituti (AQSH), qator korporativ va akademik tarmoqlar hamda GII maslahat kengashi bilan hamkorlikda tayyorlanib,



har yili sentabr oyida e'lon qilinadi. Ushbu reyting global miqyosda tadqiqot va innovatsion rivojlanish sohasida mamlakatlar faoliyatini baholovchi yetakchi tahliliy manba hisoblanadi hamda 2 ta subindeks va 7 ta yo'nalish guruhiga birlashtirilgan 80 ga yaqin indikatorni o'z ichiga oladi.

Reyting natijalariga ko'ra, O'zbekiston innovatsiyalarga yo'naltiriladigan sarmoya va resurslarni ifodalovchi innovation input subindeksida 69-o'rinni, innovatsiyalar samaradorligini aks ettiruvchi innovation output subindeksida esa 92-o'rinni egalladi. 2025-yilgi reytingda mamlakatlar 78 ta indikator bo'yicha baholandi. Natijalarga ko'ra, O'zbekiston uchun 36 ta indikator bo'yicha pozitsiyalar yaxshilandi, 7 tasida esa 2024-yilgi natijalar saqlab qolindi.

Xususan, Global innovatsiya indeksi yo'nalishlarining to'rttasida sezilarli ijobiy o'sish qayd etildi: "inson kapitali va ilmiy tadqiqotlar" yo'nalishida +12 pog'ona, "infratuzilma"da +1 pog'ona, "bozor rivojlanishi"da +4 pog'ona, "bilim va texnologiya mahsullari"da esa +10 pog'ona yaxshilanish kuzatildi. "Boshqaruv institutlari sifati" yo'nalishida esa o'tgan yilgi barqaror natija saqlanib qoldi.

2025-yilda Global innovatsiya indeksida mamlakat pozitsiyasini yanada yaxshilash maqsadida qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston bo'yicha ma'lumotlarning to'liq va ishonchli aks ettirilishini ta'minlash maqsadida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, Global tadbirkorlik tadqiqot assotsiatsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti hamda boshqa xalqaro institutlar vakillari ishtirokida indeks tarkibiy indikatorlariga oid ma'lumotlarni reyting manbalari bo'lgan axborot bazalariga o'z vaqtida va to'liq taqdim etish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, Global tadbirkorlik tadqiqot assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda mamlakatimiz uchun "Tadbirkorlik siyosati va madaniyati" hamda "Startup va skeylaplarni moliyalashtirish" tarkibiy indikatorlarini shakllantirish yuzasidan 36 nafar mahalliy ekspert ishtirokida Global tadbirkorlik monitoringi doirasida Milliy ekspert so'rovi o'tkazildi. Joriy yil reyting natijalariga ko'ra, mazkur indikatorlar bo'yicha mos ravishda 3-o'rin va 6-o'rinlar qayd etilib, jahon miqyosida yuqori natijalarga erishildi [16].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoniga² muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida innovatsion hududga aylantirilayotgan tuman (shahar)larda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida startup loyihalar tanlovi innovatsion hududlar kesimida e'lon qilindi (1-jadval) [16]. Mazkur tanlov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 133-son qarori³ bilan tasdiqlangan "Startup" loyihalarni tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq tashkil etilganini ta'kidlash lozim (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida innovatsion hududga aylantirilayotgan tuman (shahar)lar ro'yxati

No	Hududlar	Tuman (shahar)lar	Shahar va tumanlarning ixtisoslashuvi, "o'sish nuqtalari" va "drayver" sohalari
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus tumani	Issiqxonalar tashkil qilish, meva-sabzavotchilik va baliqchilikni rivojlantirish
2.		Mo'ynoq tumani	Baliqchilik, chorvachilik, turizmni rivojlantirish va artemiyani qayta ishlash
3.	Andijon viloyati	Marhamat tumani	Elektrotexnika, junni qayta ishlash va qurilish materiallari sanoati, quyonchilik sohasini rivojlantirish
4.		Buloqboshi tumani	Qurilish materiallari sanoati, meva-sabzavotni qayta ishlash va asalarichilik sohasini rivojlantirish
5.	Buxoro viloyati	Romitan tumani	Issiqxona va to'qimachilik sanoati sohasini rivojlantirish
6.		G'ijduvon tumani	Qurilish materiallari sanoati va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish
7.	Jizzax viloyati	Do'stlik tumani	Yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, xizmat ko'rsatish
8.		Paxtakor tumani	Yengil sanoat, xizmat ko'rsatish

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son <https://lex.uz/docs/-6102462>

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.03.2020 yildagi 133-son <https://lex.uz/ru/docs/-4759202>



9. 10.	Qashqadaryo viloyati	Nishon tumani	Chorvachilik, to'qimachilik, baliqchilik klasterlarini tashkil etish
		Qarshi tumani	Issiqxona xo'jaligi, sabzavotchilik, to'qimachilik sohalarini rivojlantirish
11. 12.	Navoiy viloyati	Karmana tumani	Elektrotexnika, mashinasozlik, avtomobil-sozlik va mebel, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati, baliqchilik, parrandachilik, issiqxonalar, xizmat ko'rsatish
		Qiziltepa tumani	Tikuvchilik va to'qimachilik, qurilish materiallari, sut va go'shtni qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati, baliqchilik, parrandachilik, pillachilik, bog'dorchilik va xizmat ko'rsatish
13. 14.	Namangan viloyati	Chust tumani	To'qimachilik, qurilish materiallari sanoati, hunarmandchilik, turizm sohalarini rivojlantirish
		Davlatobod tumani	Kichik sanoat zonalarini, to'qimachilik sanoati va tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish
15. 16.	Samarqand viloyati	Urgut tumani	To'qimachilik, charm-poyabzal va elektrotexnika sanoatlarini rivojlantirish
		Nurobod tumani	Qurilish materiallari ishlab chiqarish, intensiv usulda bog'dorchilik, meva-sabzavotchilikni hamda sanatoriya-davolash xizmatlarini rivojlantirish
17. 18.	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo tumani	Farmatsevtika va kimyo sanoati, savdo logistika, chorvachilik, sholichilik
		Boyovut tumani	Yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, chorvachilik, issiqxona xo'jaligi, sholichilik
19. 20.	Surxondaryo viloyati	Oltinsoy tumani	Oziq-ovqat sanoati, uzumchilik va turizmni rivojlantirish
		Termiz tumani	Yengil sanoat, issiqxonachilik, turizm va baliqchilikni rivojlantirish
21. 22.	Toshkent viloyati	Ohangaron tumani	Chorvachilik klasteri, turizm, yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish xizmati, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati
		Chirchiq shahri	Kimyo, to'qimachilik, elektrotexnika, oziq-ovqat, charm-poyabzal, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati va xizmat ko'rsatish
23. 24.	Farg'ona viloyati	Oltiariq tumani	Yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, uzumchilik, tibbiy turizmni rivojlantirish
		Buvayda tumani	Mebel ishlab chiqarish, temirchilik va sholichilikni rivojlantirish
25. 26.	Xorazm viloyati	Gurlan tumani	Yengil sanoat, sholichilik, issiqxona xo'jaligi
		Urganch tumani	Qurilish materiallari ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat, bog'dorchilik
27. 28.	Toshkent shahri	Olmazor tumani	Tibbiyot, ta'lim va umumiy ovqatlanish xizmatlari, oziq-ovqat va farmatsevtika hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish
		Mirzo Ulug'bek tumani	Moliyaviy va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, elektrotexnika va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish

O'zbekistonda yashil transformatsiya jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "tabiatni asrash – bu kelajak avlodlar oldidagi burchimizdir" degan konseptual g'oyasi asosida izchil amalga oshirilmoqda [5]. Mazkur yondashuv doirasida qator amaliy loyihalar hayotga tatbiq etilib, xususan, Navoiy viloyatida "Yashil energetika" klasteri tashkil etildi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik tiklashga qaratilgan keng ko'lamlı dasturlar joriy qilinmoqda. Ushbu tashabbuslar mintaqalarning ekologik barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion klasterlar va iqtisodiy ixtisoslashuv masalasi mashhur iqtisodchi Michael Porterning klaster nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, geografik jihatdan yaqin joylashgan va o'zaro



bog'liq korxonalar raqobatbardosh ustunliklarni shakllantiradi hamda hududiy rivojlanishni jadallashtiradi [6]. O'zbekistonda mazkur yondashuv Prezident Shavkat Mirziyoyevning "har bir viloyat o'ziga xos klaster asosida rivojlanishi lozim" degan konsepsiyasida o'z ifodasini topgan [7]. Amaliyotda Samarqand viloyatida xalqaro turizm klasteri hamda Farg'ona viloyatida to'qimachilik klasterining shakllantirilishi ushbu siyosatning muvaffaqiyatli namunalari sifatida e'tirof etilmoqda.

Mintaqaviy rivojlanishda inson kapitalining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Nobel mukofoti sovrindori Robert Lucasning inson kapitali nazariyasiga ko'ra, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi [8]. O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish siyosati Prezident Shavkat Mirziyoyevning "eng yaxshi investitsiya – insonga qilingan investitsiyadir" degan prinsipiga tayangan holda amalga oshirilmoqda [9]. Ushbu yo'nalishda "Mintaqaviy universitetlar" dasturi hamda "100 ta yangi maktab" loyihasining joriy etilishi hududlarda ta'lim sifati va kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, global iqtisodiy jarayonlar mintaqalararo integratsiyani chuqurlashtirishni taqozo etmoqda. World Bank ma'lumotlariga ko'ra, mintaqaviy savdo kelishuvlari 2020-2023-yillar davomida 40 foizga oshgan bo'lib, bu jarayon mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kuchayib borayotganidan dalolat beradi [10]. Mazkur tendensiya O'zbekiston uchun ham yangi bozorlar, investitsiya oqimlari va texnologik hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan, ishlab chiqarish jarayonida xorijiy tajribani keng qo'llab, zamonaviy texnologiyalar va yangiliklarni joriy etayotgan korxonalarda an'anaviy korxonalariga nisbatan ish haqi o'rtacha 2–3 barobar, mehnat unumdorligi esa 2 barobar oshgani kuzatilmoqda. Bu holat, avvalo, ishchi-xizmatchilar turmush darajasining sezilarli yaxshilanishi, ularning hayot sifati va farovonligining oshib borishi bilan namoyon bo'lib, mamlakatda olib borilayotgan innovatsion iqtisodiy islohotlarning amaliy samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mavjud yutuqlarni mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ayrim tizimli masalalarga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xususan, tadbirkorlarning biznesni strategik boshqarish bo'yicha malakasini yanada oshirish, ishchi-xodimlarning innovatsion yangiliklarni tez va samarali o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish, ichki va tashqi risklarni baholash hamda jahon bozorida o'z pozitsiyasini chuqur tahlil qilish salohiyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, korxonalarni rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tashkiliy va institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va innovatsiyalarni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmalarni rivojlantirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Mazkur yo'nalishlarda ijobiy natijalarga erishish uchun ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish jarayonida xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'lib, bu tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmini oshirish va sog'lom raqobat muhitini kuchaytirish, O'zbekistonda yaratilayotgan ilmiy ishlanmalarni xorijiy patentlash jarayonlarini qo'llab-quvvatlash hamda innovatsiyalarni tijoratlashtirishning muhim elementi bo'lgan marketing va texnologik qidiruv tizimlarini rivojlantirish zarur hisoblanadi [14].

Kelgusida mintaqaviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari sifatida bir qator strategik tendensiyalar kuchayishi kutilmoqda. Jumladan, "raqamli–yashil" sintez jarayoni jadallashib, raqamli texnologiyalar yashil transformatsiyani amalga oshirishning asosiy vositasiga aylanadi; aqlli energiya tarmoqlari, raqamli logistika va ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, "glokalizatsiya" jarayoni kuchayib, mintaqalar global bozorlar bilan integratsiyalashgan holda o'zining mahalliy iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini saqlab qoladi, mintaqaviy brendlash va mahalliy mahsulotlarni global qiymat zanjirlariga qo'shish jarayoni faollashadi. Inson markazli rivojlanish tamoyilining kuchayishi natijasida mintaqaviy taraqqiyot samaradorligi nafaqat iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, balki aholining hayot sifati, ta'lim darajasi va sog'liqni saqlash xizmatlarining mavjudligi bilan ham baholanadi. Shuningdek, "tiklanish iqtisodiyoti" (resilience economy) konsepsiyasi mintaqaviy siyosatning markaziy elementiga aylanib, pandemiya va boshqa global inqirozlar sharoitida tashqi zarbalarga bardoshli hududiy tizimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mintaqalararo hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishi esa transchegaraviy klasterlar, innovatsion tarmoqlar va raqamli koridorlar orqali hududlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston mintaqalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mintaqaviy raqamlashtirish dasturlarini har bir hududning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda differensiallashtirish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantiruvchi "yashil sertifikat" tizimini joriy etish, mintaqaviy innovatsion fondlarni tashkil etib, ularning boshqaruviga mahalliy rahbarlarni faol jalb etish hamda mintaqalarning tashqi zarbalarga bardoshlilikini baholovchi "tiklanish indeksi"ni joriy etish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.



Xulosa qilib aytganda, mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari murakkab va ko'p o'lchovli jarayon bo'lib, uni samarali amalga oshirish integratsiyalashgan yondashuv, izchil institutsional islohotlar va doimiy monitoringni talab etadi. Bugungi sharoitda mintaqalar nafaqat milliy iqtisodiyotning tayanch bo'g'inlari, balki uning intellektual va innovatsion markazlariga aylanib bormoqda, ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi esa mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, O'RB-630-son, 2020-yil 24-iyul <https://lex.uz/en/docs/-4910391>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3416-son qarori, 2017-yil 30-noyabr <https://lex.uz/docs/-3431440>
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-yanvardagi "Mintaqaviy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-3913188>
4. World Bank (2023). Digital Economy Development: Global Trends and Regional Perspectives. Washington, D.C.
5. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 10-martdagi "Raqamli O'zbekiston: istiqbollar va imkoniyatlar" mavzusidagi majlisidagi nutq.
6. Ellen MacArthur Foundation (2022). Circular Economy: A Global Opportunity. London.
7. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 5-iyundagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish" mavzusidagi videoselektor yig'ilishidagi nutq.
8. Porter, M.E. (2003). The Economic Performance of Regions. *Regional Studies*, 37(6–7), 549–578.
9. Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 15-sentyabrdagi "Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish: yangi yondashuvlar" mavzusidagi majlisidagi nutq.
10. Lucas, R.E. (1988). On the Mechanics of Economic Development. *Journal of Monetary Economics*, 22(1), 3–42.
11. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 1-sentyabrdagi "Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish" mavzusidagi majlisidagi nutq.
12. World Bank (2023). Global Economic Prospects: Regional Integration and Growth. Washington, D.C.
13. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 25-oktabrdagi "Mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish" mavzusidagi videoselektor yig'ilishidagi nutq.
14. Qurbonova K.I., Norova S.Y. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari. *Science and Education ilmiy jurnali*, www.openscience.uz, 2025-yil 25-dekabr, 6-jild, 12-son.
15. Djalilova N.M. Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, 2022-yil, 1-son (yanvar–fevral), № 00057.
16. <https://innovation.gov.uz>
17. <https://www.stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>